

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Egamberdiyeva Nigora Orifovna

Toshkent shahar Yangiheyot tumani 330-maktab psixologi

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixologik xususiyatlariga va shu davrdagi bolalarning asosiy faoliyatiga doir ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha tarbiya yosh davri, muloqotga bo'lgan ehtiyoj, tashqi tassurotlarga bo'lgan ehtiyoj, xatti-harakatga bo'lgan ehtiyoj, maktabga psixologik tayyorlik.

Maktabgacha yosh davri o'z ichiga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda organizmning jadal rivojlanishi davom etadi. Umumiy o'sish bilan bir qatorda to'qima va organlarning tarkib topishi va funksional rivojlanishi sodir bo'ladi. Nafas olish organlari, qon aylanish organlarining rivojlanishi. Muskullar massasining ortishi muhim ahamiyatga ega. Miya og'irligi 1110 g dan 1350 g gacha ortadi. Katta yarim sharlar po'stloq qismining boshqaruv roli ortadi. Shartli reflekslar tarkib topish tezligi kuchayadi. 2-signal sistemasi intensiv rivojlanadi. Bu yosh davrida ilk bolalik davridan farqli bolaning jismoniy jihatdan o'sishi bir qadar sekinlashadi. Lekin rivojlanishdagi notekislik davom etadi. Ilk bolalik davridan bu davrga o'tish bolaning butun yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

Bolalarning jismoniy rivojlanishi mustaqillikning vujudga kelishi uchun zarur sharoitlar yaratadi, ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy tajribani o'zlashtirish uchun imkon tug'iladi.

Bog'cha yoshidagi bola psixikasi rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bolada bir qancha ehtiyojlar rivojlanishi bilan vujudga keluvchi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlardir. Ularning eng muhimlari:

1. Muloqotga bo'lgan ehtivoi. Uning yordamida ijtimoiy tajriba o'zlashtiriladi.
2. Tashqi taassurotlarga bo'lgan ehtiyoj. Uning natijasida bilish qobiliyatlari rivojlanadi.
3. Xatti-harakatga bo'lgan ehtivoi. Bu ehtiyoj turli-tuman ko'nikma va malakalar sistemasini egallashga olib keladi.

Kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga ehtiyoj bola shaxsining tarkib topishini belgilaydi. Kattalar bilan muloqot bola mustaqilligining ortishi, uning atrof-muhit, tashqi dunyo bilan tanishuvining ortishi bilan kengayib boradi. Bu davrda muloqotning asosiy vositasi nutq bo'lib keladi. Kichik bog'cha yoshidagi bolalar kattalarga turli-tuman savollar beradilar: ular nima uchun qorong'u bo'lishini, yulduzlar kunduzi qayerga ketishini, buzoq nima uchun ma'rashi-yu, kuchuk nima uchun vovullashini bilib, aniqlab olmoqchi bo'ladilar. Kattalarning javobida bola unga o'z o'rtog'idek. Jiddiy munosabatda bo'lishini talab qiladi. Bola bilan kattalarning bunday hamkorligi bilishga bo'lgan muloqot deb ataladi. Agarda kattalar bolaga zarur munosabatda bo'lmasalar, bolada negativizm va o'jarlik hosil bo'ladi. Maktabgacha yosh davrida muloqotning yana bir formasi shaxsiy muloqot vujudga keladi. Shaxsiy muloqot bolaning kattalar bilan birgalikda boshqa kishilarning va o'zining xulq-atvori. Axloq nonnalari asosida muhokama qilishga aktiv inilishi bilan xarakterlanadi. Bola shaxsining shakllanishida tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj muhim rol o'vnavdi. Bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning turli formalari vujudga kelishi mumkin. Birgalikdagi faoliyat jarayonida bolalar boshqa bolalarga rahbarlik qilish tajribasini. bo'ysunishi tajribasini egallaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolaning rahbarlikka intilishi rahbar pozitsiyasiga emas, balki faoliyatning o'ziga emotsional munosabati bilan belgilanadi. Bu davrda bolada hali rahbarlik uchun ongli kurashish mavjud emas. Maktabgacha yosh davrida muloqot usullarining rivojlanishi davom etadi. Muloqotning genetik jihatdan dastlabki formasi - taqliddir. A.V. Zaporozetsning ta'kidlashicha, bolaning ixtiyoriy taqlid qilishi ijtimoiy tajribani egallashning yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrida taqlid xarakteri o‘zgarib boradi. Agar kichik bog'cha yoshi davrida bola kattalar va tengdoshlari xatti- harakatining alohida fonlari taqlid qilsa, keyinchalik esa bola endi kоkг-кo‘rona taqlid qilib qolmay, balki xulq-atvor nonnalari namunasini ongli ravishda o'zlashtiradi. Demak, maktabgacha yosh davri bola rivojida yangi sotsial ijtimoiy vaziyatlaming vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Bolaning kattalar bilan bo'ladigan munosabatlari yangi formaga o‘tadi: agar avval bola kattalar bilan birgalikda faoliyat qilgan bo‘lsa, endi kattalarning ko'rsatmalarini mustaqil ravislida bajara boshlaydi. Bu davrda bolada o'zining “Men” borgan sari ko'proq anglab yetish, kattalar dunyosiga qiziqish ortadi.

Bolaning rivojlanishi uchun maktabgacha tarbiya muassasalari yaxshi sharoit yaratadilar. Bu muassasalarda bolalarga ta'lim berish programmasi amalga oshiriladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalangan bolalarda psixik rivojlanishning umumiy darajasi boshqa bolalarga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Maktabgacha yosh davrida o‘yin faoliyati va bilish jarayonlarining rivojlanishi bu davrda faoliyatning yetakchi turi - o'yin faoliyatidir. O'yin bola psixikasida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Bu faoliyat asosida keyingi davrda yetakchilik rolini bajaruvchi o'qish faoliyatining asoslari quriladi.

Bola kattalar hayotiga intilish ehtiyojlarni o'yin orqali qondira boshlaydi. O'yinda bola kattalar hayotini, mehnat jarayonlarinigina emas. ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ham ifodalaydi.

O'yinda bola o'ziga kattalar rolini oladi. O'yinda bola faoliyatning u yoki bu turi talab va huquqlarini anglab yetadi. Masalan. xaridor rolini bajarishda bola sotib olmoqchi bo'lgan narsasini yaxshilab ko‘rib. tekshirib olish kerakligini, sotuvchining xizmatiga nisbatan tanbeh berishi, ketishdan oldin sotib olgan narsasiga haq to‘lash lozimligini tushunadi. o‘yin davomida biror rolni bajarish o'yin ishtirokchilarini tartib-intizomga o'rgatadi. Birgalikdagi faoliyatda bolalar kelishib harakat qilishga o‘rganadilar. O‘yin ishtirokchilarning munosabatlari kollektivizm sifatlarini tarkib toptirish bilan birga, bolaning o‘z-o‘zini anglashini ham vujudga keltiradi. O'yinda bola real predmetni

o'yinchoq bilan yoki tasodifiy narsalar bilan almashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bola bilan almashtiradi. U faqat narsalami boshqa predmetlar bilan o'zgartiribgina qolmay, balki biror hayvonni yoki odamni o'zi bilan almashtirishi mumkin. Masalan, miltiqdan otib, o'zi yerga yotib oladi. Shunday qilib, bu davrda o'yin simvolik xarakter kasb etadi. Bu esa psixikaning rivojlanishida hal qiluvchi moment hisoblanadi. Simvollarni qo'llash, bir obyektning boshqa obyekt bilan almashtirish qobiliyati tufayli bolada idrok rivojlanadi. Shuni muhimki, ba'zi predmetlarni boshqalarning o'rinbosarlari sifatida qo'llash bola o'yinida hamma narsani to'g'ri kelgan predmet bilan almashtiraveradi, deyishga asos bo'lmaydi. Bola predmetni boshqa predmet bilan almashtirishda, predmetning xususiyatlariga tayanadi. o'yinda miltiq odamga, yashik uychaga aylanishi mumkin. Bola predmetga o'zi nom qo'yganidan keyin endi predmetni yangi xususiyatlariga muvofiq ish ko'ra boshlaydi. Agar kaltak miltiqqa aylangan bo'lsa, unda kaltak otadi, otga aylangan bo'lsa, u holda bola kaltakka minadi va hokazo. O'yin faoliyati bilish jarayonlarining rivojlanishiga ta'sir etadi. Masalan, o'yinda ixtiyoriy diqqat va xotira rivojlanadi. Agar bola o'yin holatlariga o'z diqqatini qarata ohnasa, uni o'yindan chiqarishlari mumkin. O'yin nutq rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'yin vaziyati kommunikativ qobiliyatlarini talab etadi. Bunga intilish esa nutqning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Masalan, agar ikki egizak o'z tengdoshlaridan ajratilgan holda ta'biyalansa, bu bolalarda o'ziga xos, faqat shu 2 bola tushuna oladigan avtonom nutq paydo bo'ladi. Bu bolalar bir-birlaridan ajratilib, turli, boshqa-boshqa bolalar kollektiviga qo'shib qo'yilganidan keyingina ular normal nutqiy aloqa qilish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydilar. o'yin intellektual rivojlanishiga ham ta'sir etadi. o'yin da bola harakat va predmetlarni umumlashtirishni o'rganadi. Rolli o'yinda fikran harakat qilish qobiliyati rivojlanadi. Rolli o'yin psixik faoliyatning boshqa formalari. masalan. xayolriing rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyatining mazmuni o'zgaradi. Bu davrning boshlarida kattalar real predmetlar bilan qanday harakatlarni bajarsalar. bolalar ham shunday harakatlarni amalga oshiradilar. Masalan. 3 yoshli bolalar stol changini artishi, pol supurishi, non kesishi, oyoq kiyimlarni tozalashi mumkin. Bundanm tashqari. bola bu davrda yolg'iz oynaydi. Bolalar bir-birlarining o'yini

bilan qiziqmaydilar. Ular o‘z o‘yin va o‘yinchoqlarini o‘ynash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Maktabgacha yosh davrining oxirlariga kelib, bolalar o‘yinni boshqacha xarakter kasb etadi. Bu bolalar rolli o‘yinlarni o‘ynashga moyil bo‘ladilar. Shunday qilib bolalar o‘yin faoliyati ta’sirida rivojlanib boradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G`. Ontogenez psixologiyasi -Toshkent: Noshir, 2010. -73
- 2.Narzullayevna, K. G. (2022). Psychological effects of motivation of marriage in young people on family strength. *ACADEMICIA: AnInternational Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 301-303.
- 3.Xaydarov F.I., Xalilova N.I. “Umumiy psixologiya”. -Toshkent: Mumtoz soz, 2010. – 97 b
4. Kayumova, G., & Suyunova, D. (2023). THE ROLE OF PARENTS AND TEACHERS IN THE DISCLOSURE OF A CHILD'S ABILITY. *Models and methods in modern science*, 2(1), 133-135.